

## ABDULLA QAHHORNING SO‘Z TANLASH MAHORATI

*Ismoilova Dilnurabonu Jasurbekovna*  
*Toshkent Moliya Instituti Bank ishi fakulteti*

**Annotatsiya.** Badiiy adabiyot tilini o‘rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko‘pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

**Kalit So‘zlar:** Abdulla Qahhor, badiiy til, adabiy til, jonli, morfologik, Lingvopoetik, Badiiy asar tili, Ona tilini, Sinonimlar, obrazlilik, emotsionallik.

Kirish. Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: —Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar.

Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Muayyan biror til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati katta ekanligi badiiy asarlar tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelayotgani ma'lum.

Badiiy asar tili haqida so'z borar ekan, dastavval, tilning bevosita bir-biriga aloqador uch tomonini qayd etish zarur bo'ladi: badiiy til, adabiy til, jonli so'zlashuv tili.

Bu tushunchalar bir-birini to'ldirib, ayni paytda bir-biridan ozuqa olib yashaydi. Nazariy manbalarda ularning quyidagi xususiyatlari qayd etiladi: adabiy til grammatik me'yorlarga bo'ysundirilgan, qat'iy talaffuz normalariga ega bo'lgan, jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikka olib kelgan tildir:

1) adabiy til grammatik me'yorlarga bo'ysundirilgan, qat'iy talaffuz normalariga ega bo'lgan, jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikka olib kelgan tildir;

2) jonli so'zlashuv tili yoki umumxalq tilida grammatika va orfoepiya qoidalariga doim ham amal qilinavermaydi, emotsional leksika va frazeologiya, sheva elementlari, kasb-hunar leksikasi, jargonlar va boshqalardan keng foydalaniladi;

3) badiiy til esa jonli so'zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas bog'langan, hammaga tushunarli bo'lgan, «so'z ustalari tomonidan pardoziqlangan, sayqal berilgan poetik tildir». Ishning maqsadidan kelib chiqib, faqat badiiy til, ya'ni badiiy asar tili doirasida fikr yuritimiz. «Chunonchi, yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi».

Demak, ijodkorning til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Badiiy asar tilining badiiy-estetik vazifalari tilshunoslikning nazariy tomonlari bilan bog'liq holda tadqiq qilinarkan ekan, keyingi paytda iste'molga kirib kelgan lingvopoetika atamasini qo'llash o'rinli hisoblanadi. Chunki, «Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi».

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yozuvchi asarlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga doir keyingi paytdagi ishlarda asosan, leksik-semantik qatlam doirasida fikr yuritilgan. Bu jihatdan Abdulla Qahhor ijodi tilning barcha sathlari uchun boy material bera oladi deb o'ylaymiz. Badiiy adabiyotning asosiy vositasi til bo'lganligi uchun ham badiiy asar tili, obrazli ifoda mahorati masalasi badiiy adabiyot bilan deyarli bir vaqtda vujudga keldi va rivojlandi. Badiiy tilning belgilovchi xususiyatlari obrazlilik va emotsionallik hisoblanadi.

Poetik obrazlar esa fikrni ixcham va lo'nda ifodalashga, yorqin va umumlashgan tasavvurlar yaratishga, ular orqali muayyan hodisa, fikr va his - tuyg'ularni eslab qolishga yordam beradi. Shu tariqa asar poetikasi vujudga keladi. O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir.

Xulosa. Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchilarning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, «xalqning ruhi» bo'lgan tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish bilan chambarchas

bog'liq. Shu kunga qadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining aniq va lo'nda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda. Bizningcha, muayyan janrga xos xususiy belgilarni uslub tushunchasi, janrlararo umumiy belgilarni metod tushunchasi ifodalaydi. «Umumiylik»ka xos bo'lgan tushunchalar metod doirasida tekshirilishi kerak. «Xususiylik»ka xos bo'lgan tushunchalar uslub doirasida tekshirilishi kerak. Usul esa, muayyan ijodkorning individual uslubi doirasida tanlagan tasvir yo'lidir. Ijodkorning individual uslubini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoki yozuvchi ijodiy tafakkuri o'ziga xos jihatlarining qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi. Bu tarzda tadqiqotlarni «ma'lum bir ijodkorning tildan foydalanish mahoratiga doir ishlar» sifatida alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Qahhor ijodidagi o'ziga xos okkazonalizmlarning matn jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi, hissiy ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni xarakterlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda quramiz.– T.: O`zbekiston, 2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O`zbekiston, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishim kerak.– T.: O`zbekiston, 2017.
5. Abdulla Qahhor, Tanlangan asarlar.- Toshkent G'ofur G'ulom 1987
6. Abdurahmonov G'., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. –T.: O'zbekiston, 2003. – 351b.
7. Aliyev A.Yu. O'zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O'zbekiston, 1996. – 118 b.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002. – 558 b.